

**MAFKURAVIY TA'SIR VA TAHDIDLARNI TADQIQ ETISHGA DOIR  
NAZARIY YONDASHUVLAR****Sardor Ashurov**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti  
mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada mafkuraviy ta'sir, siyosiy mavkura, mafkuraviy tahdid tushunchalari, ularni tadqiq eilishi borasidagi nazariy yondashuvlar, olimlarning qarashlari va fikrlari atroflicha o'rganilgan. Maqolada mafkura va mafkuraviy tahdid, siyosiy mafkura borasida siyosiy maktablarning qiyosiy tahlili amalga oshirilgan bo'lib, unda har bir maktabning konseptual yondashuvlari aniq argumentlari bilan asoslanadi. Shuningdek, tushunchaning falsafiy va sotsiologik talqini ham tahlil etilgan bo'lib, jamiyat ijtimoiy ongiga mafkuraviy ta'sirning asosiy xususiyatlari ochib berilgan.

**Kalit so'zlar.** Mafkura, siyosiy mafkura, mafkuraviy ta'sir, realizm, liberalizm, neoliberalizm, konstruktivizm, struktualizm, K.Marks, F.Engels, A.Gramschi.

**Kirish.** Bugungi kunda mafkuraviy tahdid, ommaviy madaniyat va uning yoshlar ongiga ta'siri, mafkuraviy ta'sir ko'rsatishda davlatlarning yumshoq kuch omilidan foydalanayotganligi, yot g'oyalarga mafkuraviy immunitet hosil qilish singari dolzarb muammolar turli ilmiy maktablar diqqat e'tiborida bo'lib kelgan. Mafkuraviy ta'sir va tahdidlar fenomeni siyosatshunoslikning zamonaviy nazariy qarashlarida ko'p tarmoqli, ko'p o'lchovli hamda murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayon sifatida talqin etiladi. Mazkur masalani ilmiy jihatdan asoslash, avvalo, "mafkuraviy ta'sir", "mafkuraviy tahdid", "mafkuraviy immunitet" "identiklik", "g'oya", "yot g'oya" kabi kategoriyalarning nazariy va amaliy o'lchovlarini aniqlashni talab etadi. Sababi shundaki, hozirda yoshlar ongiga qaratilgan mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashning ijtimoiy-siyosiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha samarali konseptual model ishlab chiqish, bevosita, ushbu tushunchalarning to'g'ri metodologik talqin etilishiga bog'liq.

**Asosiy qism.**

Ma'lumki, mafkura tushunchasi siyosiy fanlarda jamiyatdagi g'oyalar, qadriyatlar va e'tiqodlar tizimi sifatida ta'riflanadi, u hokimiyatni saqlash va tarqatishda vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, mafkura jamiyatni

birlashtiruvchi hamda ma'naviy axloqiy jihatdan yo'naltiruvchi strategik kuchdir. Bu tushunchani birinchi bo'lib ilmiy iste'molga XVIII asrda (1797-yilda) fransuz mutafakkiri A. Destut de Trasi tomonidan kiritilgan. Trasi bu atamani insoniy hissiy tajribadan kelib chiqadigan g'oyalar doktrinasi sifatida talqin qilgan. U tabiiy ma'lumotlar kabi mafkura ham aniq ilmiy bo'lishi kerak, – deb hisoblangan<sup>1</sup>. Mafkura tushunchasi klassik va zamonaviy siyosiy, ijtimoiy-falsafiy tafakkurda turlicha izohlanadi. Ijtimoiy yondashuv yo'nalishida Karl Manheym<sup>2</sup> mafkurani ijtimoiy ongning tarixiy rivojlangan shakli, muayyan ijtimoiy guruh manfaatlarini aks ettiruvchi va legitimlashtiruvchi g'oyalar tizimi sifatida talqin etadi. Uning “Mafkura va utopiya” nomli fundamental asarida mafkura muayyan ijtimoiy guruh yoki sinf manfaatlarini ifoda etuvchi va jamiyatdagi hokimiyat munosabatlarini oqlash yoki tanqid qilishga xizmat qiluvchi g'oyalar, qarashlar va tushunchalar tizimi sifatida ta'riflanadi<sup>3</sup>. K. Manheymning ijtimoiy qarashlari mafkurani obyektiv haqiqat emas, balki ijtimoiy mavqe bilan shartlangan tafakkur shakli sifatida tushuntiradi. Bu yondashuv bizga mafkuraviy ta'sirni ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi hokimiyat kurashi kontekstida ko'rishning imkonini beradi. Olimga ko'ra mafkuraviy tahdid bu shunchaki g'oyaviy raqobat emas, balki ijtimoiy ong ustidan nazoratni qo'lga kiritish jarayonidir<sup>4</sup>.

Shu bilan birga klassik siyosiy qarash egalari mafkurani siyosiy ongni boshqarish vositasi sifatida qabul qilishadi. Xususan, Karl Marks mafkura tushunchasini sinfiy ong, hukmron sinf manfaatlarini aks ettiruvchi vosita ekanligini tushintirib, uni siyosiy g'oyalarni sinfiy manfaatlar nuqtayi nazaridan talqin etadi. Antonio Gramsci<sup>5</sup> va Luis Altyusser<sup>6</sup> kabi olimlar siyosiy mafkurani hokimiyatni mustahkamlash va jamiyatni nazorat qilish mexanizmi sifatida tushuntiradi. Aleksandr Vendt<sup>7</sup> va Yurgen Xabermas<sup>8</sup> uni ijtimoiy konstruksiya va diskursiv jarayon sifatida talqin etadilar. Siyosatshunos Odil Qoriyevning fikricha siyosiy mafkura nafaqat jamiyatni birlashtirib, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi. Balki siyosiy mafkura – bu muayyan ijtimoiy guruhning

<sup>1</sup> Дестют де Траси. Основы идеологии. – Москва, Академический проект: Альма-Матер, 2013. – С.336.

<sup>2</sup> Mannheim, K. (1929). Ideology and Utopia: An introduction to the sociology of knowledge louis wirth and edward shills. San Diego: Harvest. <https://www.scirp.org/reference/referencespapers?referenceid=683157>

<sup>3</sup> Mannheim K. Ideologie und Utopie. Verlag von Friedrich Cohen in Bonn. 1929. – P.171.

<sup>4</sup> Karl Mannheim's "Ideology and Utopia" Hans Speier. State, Culture, and Society. Vol. 1, No. 3 (Spring, 1985), pp. 183-197 (15 pages). Published By: Springer Nature. <https://www.jstor.org/stable/20006823>

<sup>5</sup> Quintin Hoare and Geoffrey Nowell Smith. Selections From The Prison Notebooks Of Antonio Gramsci. Published simultaneously by Lawrence & Wishart, London, and International Publishers, New York. © Quintin Hoare and Geoffrey Nowell Smith, First edition, 1971. 11th Printing, 1992. ISBN 0-7178-0397-X. – 475 p.

<sup>6</sup> Andrew Ryder. Althusser's theory of ideology. <https://isreview.org/issue/99/althussers-theory-ideology/index.htm>

<sup>7</sup> Social Theory Of International Politics Alexander Wendt. [https://lan-portal.uob.edu.ly/data/PPT/61BF608004/social\\_theory\\_of\\_international-politics\\_alexander\\_wendt.pdf](https://lan-portal.uob.edu.ly/data/PPT/61BF608004/social_theory_of_international-politics_alexander_wendt.pdf)

<sup>8</sup> Joseph L. Staats .Habermas and Democratic Theory: The Threat to Democracy of Unchecked Corporate Power. <https://www.jstor.org/stable/3219820>

hokimiyatga intilishini yoki undan foydalanishini asoslovchi va siyosiy harakatning u yoki bu strategiyasini ko'zda tutuvchi g'oyaviy tizimdir<sup>9</sup>. Ingliz siyosatshunosi E.Xeyvud hozirgi zamon siyosiy mafkuralarining vujudga kelishi va ularning siyosiy hayotda tutgan o'rni haqida tadqiqotlar olib bordi<sup>10</sup>. AQShlik nazariyotchi olim, Frensis Fukuyama<sup>11</sup> o'zining qarashlarida tarixni mafkuraviy kurashlar va raqobatlar jarayoni deya tushintiradi, uning fikricha insoniyat sivilizatsiyasi turli ijtimoiy qarashlar va siyosiy tizimlar, g'oyalar hamda diniy qarashlar o'rtasidagi **doimiy kurash** orqali oldinga siljigan. Bunda olim sovuq urushning yakunlanishi bilan SSSRning qulashini argument qilib ko'rsatib, liberal demokratiya **boshqa mafkuralar ustidan g'alaba qozonganligi va butun dunyo ayni g'oyaga ergashishi lozimligini ta'kidlaydi. Bu yerda "intiho" tariqasida u tarixni urushlar hamda mafkuralar o'rtasidagi fundamental to'qnashuvlar nuqtai nazaridan ko'radi. Bundan ko'rinib turibdiki,** siyosiy mafkuraning asosiy vazifasi jamiyatning mavjudligini ta'minlovchi, uni birlashtiruvchi va ijtimoiy guruhlarning hokimiyatga intilishi belgilovchi g'oyaviy yo'nalishdir.

Siyosatshunos olim M.Qirg'izboyevning fikricha, siyosiy mafkuralar siyosiy tizimlar shakllanishida ishtirok etib, turli ijtimoiy qatlamlar birligini ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, liberalizm o'rta sinfning, konservatizm yerga egalik qiluvchi aristokratlarning, sotsializm esa ishchilar qatlamining mafkurasi hisoblanadi. Ayni paytda, liberal demokratiya mafkurasi ko'plab g'arb jamiyatlarini bir-biriga ipsiz bog'lab turuvchi platformasi hisoblanadi, shuningdek, o'rta asrlarda islom dini ham musulmon jamiyatlarining mafkurasi sifatida qaralgan edi<sup>12</sup>.

### **Muhokama va tahlillar**

Darhaqiqat, siyosatshunoslikda "mafkuraviy ta'sir" va "mafkuraviy tahdid" tushunchasi turlicha baxs munozaralar va yondashuvlar bo'lganligi hisobga olinsa uni tadqiq etish dolzarbdir. Shu nuqtai nazardan, klassik va yangi davr siyosiy maktablarning ushbu tushunchaning mohiyati, uning siyosat va xalqaro munosabatlardagi rolini tushunishga oid qarashlarini tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Realizm nazariyasi. Xalqaro munosabatlarda realizm maktabi vakillariga ko'ra mafkura tushunchasi klassik qarashda davlat manfaatlarini asoslovchi normativ vosita sifatida tushuntiradi. Shuningdek, mafkuraning asosiy manbalari davlat va davlat

<sup>9</sup> Odilqoriyev X. T, Razzoqov D. X. Siyosatshunoslik: Darslik. –T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. – 205 b.

<sup>10</sup> Haywood E. Political ideologies: An introduction. Basingstoke, London: Mac-Millan, 1992.-348 p.

<sup>11</sup> Francis Fukuyama. The End of History and the Last Man.

<sup>12</sup> Қирғизбоев М. Сийосатшунослик: олий ўқув юртлари талабалари учун ўқув қўлланма. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2013. – В. 455.

hokimiyatini legetimlashtiruvchi siyosiy institutlar ekanligi ta'kidlanadi<sup>13</sup>. Ushbu maktab vakillarining eng mashhur namoyondasi Hans Morgenthu mafkura va mafkuraviy ta'sir etishni xalqaro siyosat kuch va manfaatlar o'rtasidagi raqobat sifatida talqin qilinadi. Shu nuqtai nazardan mafkuraviy tahdidlar milliy xavfsizlikning tarkibiy elementi sifatida qaraladi. Maktabning boshqa vakili R.Aron<sup>14</sup> qarashlarida mamlakat qudratining eng asosiy komponenti qurolli kuchlar ekanligiga urg'u beriladi<sup>15</sup>. Yoshlar ongiga qaratilgan tashqi mafkuraviy ta'sirlar davlat suverenitetiga nisbatan jiddiy xavf sifatida baholanadi. Biroq realizm mafkurani asosan davlatlararo munosabatlar prizmasida ko'rganligi bois, uning ijtimoiy-psixologik va kommunikativ jihatlarini yetarli darajada yoritmaydi.

Liberalizm nazariyasi. Ushbu maktab zamonaviy xalqaro munosabatlarda davlatlararo aloqalarda yondashuvlarni tamoman boshqa ko'rinishga kelishiga olib keladi. U XVII–XVIII asrlarda ma'rifatparvarlik g'oyalari negizida burjua sinfi mafkurasi sifatida shakllandi. Bu mafkuraning asosiy qoidalari J.Lokk, T.Gobbs, SH.Monteskyo, A.Smit, asarlarida ishlab chiqildi va asoslandi<sup>16</sup>. Liberalizm siyosiy mafkura sifatida o'zining asosiy tamoyillari – shaxs erkinligi, huquqiy davlat, bozor iqtisodiyoti va demokratik boshqaruv orqali siyosiy tizimlarga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Maktab vakillari globallashuv tobora kuchayib borayotgan bir sharoitda, axborot texnologiyalari, umumiy iqtisodiy manfaatlar tufayli xalqaro tashkilotlar doirasida qo'shma majburiyatlar orqali tobora bog'lanib borishini xisobga olib, mafkura va mafkuraviy ta'sirni qadriyatlar tizimi, fuqarolik jamiyati va demokratiya institutlari bilan bog'liq normativ konstruksiya sifatida talqin etadi. Bu yondashuvda mafkuraviy tahdid demokratiya tamoyillari, inson huquqlari va ochiq jamiyat institutlariga qarshi qaratilgan destruktiv diskurs sifatida ko'riladi. Shundan kelib chiqib, integratsiya sharoitida moddiy qattiq vositalar chetga surilib, yangi nomoddiy yumshoq vositalar asosiy o'ringa chiqishi mumkinligiga ishonch bildirishadi<sup>17</sup>.

Neoliberalizm nazariyasi. Nisbatan yangi maktab neoliberalizm vakillari nazariyasi ko'proq nomoddiy kuch manbalaridan ommaviy madaniyat, qadriyat,

<sup>13</sup> Waltz K. Theory of International Politics. Reading, - MA: Addison-Wesley, 1979. – P. 131. [https://d11.cuni.cz/pluginfile.php/486328/mod\\_resource/content/0/Kenneth%20N.%20Waltz%20Theory%20of%20International%20Politics%20Addison-Wesley%20series%20in%20political%20science%20%20%20%201979.pdf](https://d11.cuni.cz/pluginfile.php/486328/mod_resource/content/0/Kenneth%20N.%20Waltz%20Theory%20of%20International%20Politics%20Addison-Wesley%20series%20in%20political%20science%20%20%20%201979.pdf)

<sup>14</sup> Арон Р., Бабило А.М. “Мягкая сила” международной политике: особенности национальных стратегий // Вестник Бурятского государственного университета. – 2013, №14. – С. 129-130.

<sup>15</sup> Таджиев, Ш. «„Мягкая сила“ во внешней политике Республики Узбекистан на современном этапе». in Library, т. 3, вып. 3, сентябрь 2023 г., сс. 3-237, [URL://https://inlibrary.uz/index.php/archive/article/view/24084](https://inlibrary.uz/index.php/archive/article/view/24084).

<sup>16</sup> Қирғизбоев М. Сиёсатшунослик: олий ўқув юртлари талабалари учун ўқув қўлланма. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2013. – В. 189.

<sup>17</sup> Бобохонов А.Т. “Мягкая сила” во внешнеполитической прктике Китая. Дис. по PhD. УМЕД – 2023. – С. 24

diplomatiyadan foydalanishga asoslangan yondashuvni ilgari surdilar. Mazkur maktabi nuqtai nazarida mafkuraviy ta'sir faqatgina bir insonlarning emas balki, butun bur jamiyatning ijtimoiy-siyosiy ongini boshqarish imkoni beruvchi kuch ekanligini ta'kidlashadi.

Neoliberalizmning yetakchi vakillari R.Koheyn va J.Nay XX asrning ikkinchi yarmida shakllangan xalqaro-siyosiy ko'rinishni tasvirlash uchun kompleks o'zaro bog'liqlik konsepsiyasini taklif qildi. Mafkuraviy ta'sirning global miqyosadagi ko'rinishini tushuntirishda neoliberallarning mashxur vakili J.Nay tomonidan ishlab chiqilgan "yumshoq kuch" konsepsiyasi muhim metodologik yondashuv bo'la oladi. Yumshoq kuch - bu majburlashsiz, joziba va normativ ustunlik orqali ta'sir ko'rsatish mexanizmi<sup>18</sup>. Madaniyat, ta'lim, ilm-fan, media va diplomatiya vositalari orqali yoshlar ongiga kirib boruvchi g'oyalar orqali ularning milliy mafkuraviy shuuriga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu jihatdan olib qaralganda zamonaviy mafkuraviy tahdidlar ko'pincha ochiq konfrontatsiya emas, balki jozibador diskurs shaklida namoyon bo'ladi.

Konstruktivizm nazariyasi. Ushbu nazariya xalqaro munosabatlardagi eng yangi nazariya bo'lib, u xalqaro munosabatlarni shakllantirishda g'oyalar, me'yorlar va o'ziga xosliklarning roliga asosiy e'tiborini qaratadi. Konstruktivistlar xalqaro tizim shunchaki moddiy kuch taqsimoti emas, balki davlatlarning bir-biri bilan o'zaro munosabatini shakllantiradigan umumiy g'oyalar, me'yorlar va o'ziga xosliklarning yig'indisi ekanligini ta'kidlaydilar.

Ularning ta'kidlashicha, ta'sir ko'rsatishda mafkuraviy tahdidlar ijtimoiy konstruktsiyadir, maktabning yorqin vakili Aleksandr Vendt<sup>19</sup> "Xalqaro siyosatning ijtimoiy nazariyasi" nomli asarida asosan milliy xavfsizlik, ijtimoiy konstruksiya va g'oyaviy ta'sir masalalari chuqur tahlil qilar ekan, an'ana va siyosiy institutlar tashqi ko'rinishda davlatning harakatlarini shakllantiradi, lekin ularning ichki rag'batlantirish va qaror qabul qilish jarayoni g'oyaviy tuzilishlar orqali belgilanishini tushintiradi. Bundan ko'rinib turibdiki, tahdid obyektiv emas, balki ijtimoiy idrok mahsuli xisoblanib nazariya markazida xalqaro tizimning mohiyati ishtirokchilarning o'zaro tasavvurlari va o'zlik konstruksiyalariga bog'liq ekanligi yotadi. Unda ko'ra ma'lum jamiyat yoki jamoa yoshlarining ongida muayyan g'oyaning "tahdid" sifatida qabul qilinishi ijtimoiy diskurs va normativ muhit bilan belgilanadi.

<sup>18</sup> Joseph S. Nye Jr. *Soft Power: The Means to Success in World Politics*. – New York. Public Affairs. 2004. – P. 18.

<sup>19</sup> Alexander Wendt, "Social Theory of International Politics". 1999

Shu bilan birga konstruktivizmning real ijtimoiy holatini tushintirishda P.Berger ijtimoiy voqelik institutsionallashtirish va legitimlash jarayonlari orqali shakllanishini ta'kidlab, hozirgi raqamlashish zamonida butun tarmoqlarda tarqalayotgan radikal yoki ekstremistik kontentlarning ko'pligi va ularning ijtimoiy qo'llab-quvvatlash natijasida normaga aylanib borishi yoshlar ongida o'zlikning yo'qolishiga olib kelishi ehtimollikni tushintiradi. Darhaqiqat bugungi ijtimoiylashuvda raqamli olamning o'rni ortib borayotganligi ayni haqiqat bo'lib, hozirda yoshlarning real hayot tarzi bilan bir qatorda ijtimoiy tarmoqdagi raqamli hayoti ham mavjuddir. Eng etiborli jihati ular real hayotidagi voqealardan ko'ra tarmoqlardagi hayotida faolroq turmush tarziga ega. Shu sababdan yuqorida keltirilgan yondashuv yoshlarning ijtimoiylashuvdagi bugungi transformatsion jarayonlarning tushunish va metodologik tahlil etishda muhim yo'nalish sifatida xizmat qilishi mumkin.

Strukturalizm nazariyasi. Mazkur yondashuv vakillari mafkurani ijtimoiy tuzilmalarning yashovchanlik mexanizmi sifatida talqin etadi. Mazkur qarash vakillari doirasida muhim nazariy yondashuvni Antonio Gramsci ilgari surgan "madaniy hegemonlik" konsepsiyasi egallaydi. Gramschiga ko'ra, hukmron guruhlar o'z ustuvorligini zo'ravonlik orqali emas, balki rozilik hissini shakllantira olish orqali mustahkamlaydi. Rozilik esa madaniy va mafkuraviy ustunlik orqali shakllanadi. Gramschi mafkuraviy hukmronlikni "siyosiy jamiyat" va "fuqarolik jamiyati"dan tashkil topgan ikki darajali superstruktura deya tushintiradi. Bunda birinchisida davlat apparati – politsiya, armiya, sudlar – orqali kuch ishlatish faqat rozilik yetarli bo'lmaganda qo'llaniladi. Ikkinchisi, maktablar, ommaviy axborot vositalari, cherkovlar, kasaba uyushmalari va madaniy tashkilotlar orqali o'z mafkurasini "umumiy haqiqat" sifatida tarqatadi. Yana bir muhim komponent – organik va an'anaviy intellektuallar bo'lib, birinchisiga jurnalistlar, o'qituvchilar kirsam ikkinchisiga olimlar, ruhoniylar kiritiladi. Bunda birinchi guruh mafkurani targ'ib qilsa, ikkinchi guruh xolis fikr bildirib mafkurani ong ostiga mustahkamlaydi<sup>20</sup>.

Darhaqiqat, A.Gramschi qarashlarida madaniy va mafkuraviy ustunlikka "intellektual va axloqiy rahbarlik" orqali erishilishi va u orqali hokimiyat sinfi o'z qadriyatlarini butun jamiyatga "umumiy manfaat" sifatida singdirishga erishishini tushintiradi<sup>21</sup>. Bu nazariya Lenin va Marksdan g'oyalaridan farqli o'laroq, Yevropa G'arbida sotsialistik inqiloblar nima uchun sodir bo'lmaganini tushintiradi. Buni

<sup>20</sup> Quintin Hoare and Geoffrey Nowell Smith. Selections From The Prison Notebooks Of Antonio Gramsci. Published simultaneously by Lawrence & Wishart, London, and International Publishers, New York. © Quintin Hoare and Geoffrey Nowell Smith, First edition, 1971. 11th Printing, 1992. ISBN 0-7178-0397-X. – P. 147.

<sup>21</sup> O'sha manbaga qaralsin.

sababi sifatida ko‘hna Yevropa burjuaziya faqat davlat orqali emas, balki fuqarolik jamiyati orqali yetakchilikni saqlashi, misol tariqasida Italiyada fashizmning kuchayishi ishchi sinfining roziligi orqali bo‘lgan, ya’ni milliy birlik va iqtisodiy farovonlikni va’da qilinishi xalq va omma istagini amalga oshiruvchi motiv qilib ko‘rsatilgan. Bugungi zamonaviy globallashuv sharoitida yoshlar ongiga ta’sir etuvchi pop-madaniyat, media mahsulotlari, transmilliy ta’lim dasturlari gegemonlik mexanizmining instrumentlariga aylangan. Shu nuqtai nazardan, mafkuraviy tahdid — bu muqobil qadriyatlar tizimining asta-sekin normallashuvi va milliy o‘zlikning yemirilishidir. Nazariy yondashuv vakillaridan yana biri Louis Althusser esa mafkurani davlat apparatlari orqali boshqariluvchi va harakatga keltiruvchi tizimli ta’sir sifatida tushuntiradi. Uning fikricha, ta’lim, OAV, din va madaniyat institutlari shaxs ongini shakllantirish orqali mavjud ijtimoiy tuzilmani qayta ishlab chiqaradi.

Kaliforniya universiteti professori, sotsiolog, axborot jamiyati nazariyasining asoschilaridan biri Manuel Castells<sup>22</sup>ning globallashuv, ommaviy madaniyat tahdidi, axborotlashib borayotgan jamiyatlarda milliy o‘zlikni (identitet) saqlab qolish muammolarini tahlil qilish mobaynida axborot jamiyatida ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimi an’anaviy institutlar orqali emas, balki axborot tarmoqlari, madaniy diskurslar va kommunikativ makon orqali shakllanishini ta’kidlaydi. Olimga ko‘ra, globallashuv sharoitida identitet inqirozi yuzaga keladi va bu ayniqsa yoshlar ongida yaqqol namoyon bo‘ladi. Zamonaviy bosqichda mafkuraviy tahdidlarni tushuntirishda tarmoq jamiyati nazariyasi alohida o‘rin tutadi. Manuel Castells axborot jamiyatida hokimiyat tarmoqlar orqali amalga oshirilishini asoslab beradi. Raqamli platformalar orqali tarqaluvchi dezinformatsiya, “fake news”, bot tarmoqlar va algoritmik manipulyatsiya yoshlar ongiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Mafkuraviy kurash an’anaviy propagandan ko‘ra ko‘proq informatsion-psixologik operatsiyalar shaklini olgan. Shu jumladan Yurgen Habermas kommunikativ harakat nazariyasida manipulyativ diskursni ijtimoiy ongni buzuvchi omil sifatida ko‘rsatadi. Agar ommaviy kommunikatsiya tizimida ratsional muloqot o‘rnini instrumental manipulyatsiya egallasa, mafkuraviy tahdid kuchayadi. Yoshlar ijtimoiy tarmoqlarda ko‘proq vaqt o‘tkazishini hisobga olsak, kommunikativ maydonning sifati ularning siyosiy ijtimoiylashuviga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Darhaqiqat biz yashayotdan zamonamizda Z-avlod vakillari raqamli makonda faol ishtirok etar ekan, ularning dunyoqarashi milliy qadriyatlar bilan bir qatorda transmilliy va ommaviy madaniyat g‘oyalari ta’sirida shakllanmoqda. Natijada, yoshlar ongida

<sup>22</sup> Castells M. The Power of Identity. 1997. – 379 p.

milliy mafkura bilan mos kelmaydigan qarashlar paydo bo'lishi xavfi ortadi. Shu nuqtai nazardan, axborot makonidagi xavfsizlikni ta'minlashda faqat texnologik choralar emas, balki g'oyaviy va ma'naviy mexanizmlarning ham muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi va ilmiy jihatdan tahlil qilish imkonini beradi.

Mahalliy olimlar J.Y.Yaxshilikov va N.E.Muhammadiyevlar qarashlarida milliy g'oya va mafkura tushunchalarini chuqur tahlil qilinib, ularning jamiyat hayotidagi o'rni, shakllanish jarayonlari hamda ma'naviy tarbiya va yosh avlodni tarbiyalashdagi ahamiyati ochib beriladi. Olimlar fikricha milliy mafkura fuqarolarni ma'naviy jihatdan yuksaltirish, milliy birdamlikni ta'minlash va global g'oyaviy ta'sirlardan himoyalash vositasi sifatida ko'rsatiladi. Shu bilan birga, ular tarixiy, falsafiy va ijtimoiy tahlil, qiyosiy usul hamda kontent tahlili metodlarini qo'llash orqali milliy g'oya va mafkuraning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etgan<sup>23</sup>.

Mashhur olim J. M. Keyns dunyoni iqtisodiy va siyosiy-falsafiy nazariyalar boshqaradi, deb yozadi. Kapitalizm A. Smit va D.Rikardolarning klassik siyosiy iqtisodi, sobiq ittifoqdagi kommunizm esa marksizm ta'limoti asosida rivojlandi. Aslini olganda siyosiy mafkuralar real hayotga katta ta'sir ko'rsatadi. Mafkura tarixiy shart-sharoit hamda siyosiy intilishlar ta'siri ostida shakllanadi. Siyosiy hayot, bir tomondan, g'oyalar va mafkuralar, ikkinchi tomondan esa tarixiy va moddiy kuchlarning doimiy o'zaro ta'sirini ifodalaydi. Har bir inson va siyosatchi o'z mafkurasini tanlaydi va shundan kelib chiqib o'z siyosiy nuqtayi nazariga ega bo'ladi. Ammo har bir siyosatchi hokimiyatni egallash, uni boshqarish va ushlab turish talablaridan kelib chiqib, o'z siyosiy qarashlarini o'zgartirib boradi. Siyosiy mafkura hokimiyat va unga doir munosabatlar mavqeiga tegishli muammolar bilan chambarchas bog'liqdir. Mafkuralar turli xil yo'nalishlarga ega bo'lishiga qaramasdan, jamiyat va siyosiy tizim haqidagi aniq konsepsiyani, uni amalga oshirish borasidagi yo'l-yo'riqlar va vositalarga ega bo'lishni tan olishga asoslanadi<sup>24</sup>.

### **Xulosa**

Yuqorida bayon qilinganlardan shunday xulosalarga kelish mumkin. Mafkuraviy ta'sir va tahdidlarni tadqiq etish nazariy jihatdan ko'p qatlamli va integrativ yondashuvni talab etadi. Yoshlar ongiga qaratilgan mafkuraviy tahdidlar nafaqat g'oyaviy raqobat, balki ijtimoiy konstruktsiya, kommunikativ tebranishlar va raqamli boshqaruv ta'siri jarayonlarining murakkab ko'rinishidir.

<sup>23</sup> Yaxshilikov J.Y. va Muhammadiyev N.E. "Milliy g'oya va mafkura", Monografiya. Toshkent, 2015.

<sup>24</sup> Қирғизбоев М. Сиёсатшунослик: олий ўқув юртлари талабалари учун ўқув қўлланма. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2013. – В. 454.

Birinchiidan, mafkuraviy ta'sir va tahdidlarni o'rganish ko'p qirrali va kompleks metodologik yondashuvni talab etadi. Turli nazariy maktablar ushbu hodisani har xil nuqtai nazardan talqin qiladi. Masalan, realizm uni milliy manfaat va xavfsizlik bilan bog'lasa, liberal va neoliberal yondashuvlar qadriyatlar omili deya tushuntiradi, konstruktivizm esa mafkuraviy tahdidni ijtimoiy ong mahsuli sifatida ko'radi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, mafkuraviy tahdid faqat g'oyaviy qarama-qarshilik emas, balki ijtimoiy o'zlik va hokimiyat uchun kechayotgan murakkab jarayon sifatida tushunish mumkin.

Ikkinchiidan, zamonaviy sharoitda mafkuraviy tahdidlar axborot-kommunikatsiya makoni bilan chambarchas bog'liq. Raqamli platformalar, ijtimoiy tarmoqlar va media resurslari orqali g'oyaviy ta'sir tez va keng miqyosda tarqalmoqda. Bu jarayonda tahdid ko'pincha ochiq targ'ibot shaklida emas, balki jozibador kontent, ommaviy madaniyat va global qadriyatlar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Demak, mafkuraviy xavflarni baholashda faqat mazmunni emas, balki uning qanday qabul qilinishi va yoshlar ongida qanday aks etishini ham hisobga olish zarurdir. Bu esa empirik tadqiqotlarda sotsiologik so'rovlar, fokus-guruhlar, raqamli etnografiya va media-kontent monitoringi kabi metodlardan foydalanishni metodologik jihatdan asoslaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Дестют де Траси. Основы идеологии. – Москва, Академический проект: Альма-Матер, 2013. – С.336.
2. Mannheim, K. (1929). Ideology and Utopia: An introduction to the sociology of knowledge louis wirth and edward shills. San Diego: Harvest. <https://www.scirp.org/reference/referencespapers?referenceid=683157>
3. Quintin Hoare and Geoffrey Nowell Smith. Selections From The Prison Notebooks Of Antonio Gramsci. Published simultaneously by Lawrence & Wishart, London, and International Publishers, New York. © Quintin Hoare and Geoffrey Nowell Smith, First edition, 1971. 11th Printing, 1992. ISBN 0-7178-0397-X. – 475 p.
4. Andrew Ryder. Althusser's theory of ideology. <https://isreview.org/issue/99/althussers-theory-ideology/index.ht>
5. Social Theory Of International Politics Alexander Wendt. [https://lan-portal.uob.edu.ly/data/PPT/61BF608004/social\\_\\_theory\\_of\\_international-politics\\_alexander\\_\\_wendt.pdf](https://lan-portal.uob.edu.ly/data/PPT/61BF608004/social__theory_of_international-politics_alexander__wendt.pdf)
6. Joseph L. Staats .Habermas and Democratic Theory: The Threat to Democracy of Unchecked Corporate Power. <https://www.jstor.org/stable/3219820>

7. Odilqoriyev X. T, Razzoqov D. X. Siyosatshunoslik: Darslik. –Т.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. – 205 b.
8. Haywood E. Political ideologies: An introduction. Basingstoke, London: Mac-Millan, 1992.-348 p.
9. Francis Fukuyama. The End of History and the Last Man.
10. Waltz K. Theory of International Politics. Reading, - MA: Addison-Wesley, 1979. – P. 131.
11. Арон Р., Бабило А.М. “Мягкая сила” медународной политике: особенности национальных стратений // Вестник Бурятского государственного университета. – 2013, №14. – С. 129-130.
12. Таджиев, Ш. «„Мягкая сила“ во внешней политике Республики Узбекистан на современном этапе». in Library, т. 3, вып. 3, сентябрь 2023 г., сс. 3-237, URL://<https://inlibrary.uz/index.php/archive/article/view/24084>.
13. Қирғизбоев М. Сиёсатшунослик: олий ўқув юртлари талабалари учун ўқув кўлланма. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2013. – В. 189.
14. Бобохонов А.Т. “Мягкая сила” во внешнеполитической прктике Китая. Дис. по PhD. УМЕД – 2023. – С. 24
15. Joseph S. Nye Jr. Soft Power: The Means to Success in World Politics. – New York. Public Affairs. 2004. – P. 18.
16. Alexander Wendt, “Social Theory of International Politics”. 1999
17. Castells M. The Power of Identity. 1997. – 379 p.
18. Yaxshilikov J.Y. va Muhammadiyev N.E. “Milliy g‘oya va mafkura”, Monografiya. Toshkent, 2015.